

**Ernazarova Gulnora Oblaquovna
Isroilov Gobiljon Toshtemirovich
Qurbonova Muattar Erkinovna**

34.0.
E-33

PEDAGOGIK KOMPETENTLIK



34,0
E-33.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI Oliy Ta'lim, Fan va
Innovatsiyalar Vazirligi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

-14075/44-

PEDAGOGIK KOMPETENTLIK

O'quv qo'llama

Mualliflar:

p.f.d. Ernazarova Gulnora Oblaquovna

aprof. Qobiljon Toshtemirovich

Qurbanova Muattar Erkinovna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI Oliy Ta'lim,
Fan va Innovatsiyalar Vazirligi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq - 2023
«City of books»

G.O. Etmazova, Isroilov Q.T., Qurbonova M.E. / Pedagogik kompetentlik /
O'quv-qo'llama. - Chirchiq: «City of book», 2023. - 156 bet.

Ushbu o'quv qo'llama Pedagogik kompetentlik fanidan ilmiy-amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga bag'irlangan, magistratning 5A110902 – Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan pedagogika fanlari o'qituvchilari, malaka oshirish kursitug'lovchilari, bakalavrlarning pedagogika yo'nalishlari talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Данное учебное пособие посвящено вопросам формирования и развития научно-практических знаний, умений и навыков по дисциплине педагогическая компетентность, предназначено для студентов направления 5a110902 – Педагогика и психология магистратуры, может быть использовано преподавателями педагогических наук, слушателями курсов повышения квалификации, а также студентами педагогических направлений бакалавриата.

This textbook is devoted to the formation and development of scientific and practical knowledge, skills and abilities in the discipline of pedagogical competence, is intended for students of the direction 5a110902 - Pedagogy and psychology of the master's degree, can be used by teachers of pedagogical sciences, students of advanced training courses, as well as students of pedagogical directions of the bachelor's degree.

Muhalliflar:

G.O. Etmazova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Umumiy pedagogika" kafedrasi professori, p.f.d.
Isroilov Qobiljon Toshemirovich, Qurbonova Maqtatlar
Erkinovna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, ilmiy-
tadqiqotchilari

Taqrizchilar:

p.f.d., prof. X. Ibratov Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori
p.f.d., prof. Ximmataliyev D.O. Chirchiq davlat pedagogika
universiteti Pedagogika va menejment kafedrasi professori

ISBN 978-9910-9964-9-8

© G.O. Etmazova va boshqalar. 2023
© «City of book», 2023

Kirish

Pedagogik kompetentlik fani pedagogik kasbiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda va rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlikka oid ilmiy yondoshuvlar, o'qituvchi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish yo'llari, o'qituvchi kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirish tizimi, o'qituvchi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar, professionalizatsiya, pedagogik kasbning saqlanishini ta'minlovchi kompetentsiyalar, pedagogik kreativlik, hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari kabi o'quv materiallari fan mazmunini tashkil etadi. Shuningdek, kasbiy faoliyatda pedagogik kompetentlik, kreativlik, mahoratni muvaffaqiyatli, maqsadli qo'llash malakalariga ega bo'ladi, ta'lim jarayonini oqilona loyihalashtirishga doir tajribalarni yanada boyitadi va o'z navbatida o'qitish jarayonida talabalarning faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv qo'llamaning maqsadi magistratni pedagogik kompetentlik fanining ilmiy-mazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida oqitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat. Talabalarga pedagogik kompetentlik faniga doir manbalardan foydalana olishga o'rnatish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish, boshqaruv oqituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri — talim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid ta'limni yonaltirish bo'lgan pedagogik kompetentlik fani yuzasidan nazariy bilimlar bilan ta'minlash, pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qamrovlantirish, talim-tarbiya jarayonini bola ruhiyati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim konimatlarni egallashlarini ta'minlash, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda kreativlik, tushuncha, fasilitatorlik qobiliyatlarini va metodik savodxonlikni hisobga kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

I-mavzu. Pedagogik kompetentlik fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari



Maqsad: Pedagogik kompetentlik fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari haqida ta'lim berish.



Vazifalar:

Pedagogik kompetentlik fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari haqida tushunchalar berish.

Pedagogik kompetentlik fanini o'qitishdan maqsad - magistrnlarni pedagogik kompetentlik fanining ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va talimdagi innovatsion jarayonlar tizimida oqitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat ekanligi haqida tushunchalar berish.



Tayanch tushunchalar: pedagogik kompetentlik, ilmiy-nazariy asoslar, kompetentlik tushunchasi, talimdagi innovatsion jarayonlar, oqitish va tarbiyalashda kompetentlik, pedagogik-psixologik tayyorgarlik

Pedagogik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan bog'liq.

Pedagogikaning ilk bosqichlari falsafa negizida paydo bo'lgan.

Pedagogika yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o'qitish, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Pedagogika jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan insoniy faoliyat sohasi. Bu fan o'qituvchilarga bilim berish va bu bilimlarni hayotda qo'llay olish sirlarini o'rgatadi. Insonga ta'lim-tarbiya u ona qomida ekanligidan boshlab, to qabrga kirgunga qadar berilishi kerak. Demak, ta'lim-tarbiya, birinchidan, jarayon, ikkinchidan, u uzluksiz.

Pedagogika fanining tadqiqot ob'ekti – uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Pedagogika fanining predmeti bo'lgan ilmiy bilim asosida jamiyatning alohida funksiyasi – tarbiya mazmuni yotadi.

“Pedagogika” atamasi ikki yunoncha so'z: pais, paidos – bola, go'dak va ago – yetaklaydigan so'zlarning birligidan hosil bo'lgan va “Bola yetaklovchi” yoki “Bolaga yo'l ko'rsatuvchi” degan ma'noni anglatadi.

Rivoyatlarga qaraganda, Qadimgi Yunonistonda quldorlar ularning bolalarini maktabga olib boruvchi va maktabdan olib keluvchi maxsus qulni tayinlaganlar. Uni quladagoga deb ataganlar. Keyinchalik bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi kishilarni pedagoglar deb atash odat tusini olgan.

Pedagogika fanining nomi ham ayni shu so'zdan kelib chiqqan. XXI asr o'qish va o'qitishdagi inqilob har bir talabaning o'quv va tadqiqot ishlarining olib borishi holatidagi kon turlibiga qo'ydi.

Pedagogik kompetentlikning asosiy vazifalari inson turmush tarzining barcha yo'nalishlari (qitmoq, shaxsiy, siyosiy va boshqalar)da muvaffaqiyatli pedagogik faollarni yaratishga yo'naltirilgan.

Ta'lim tarbiyani tashkil etishga qaratilgan Kontsepsiyalar ishlab chiqilgan va Amalda qo'llanilmoqda. “Kontsepsiya” yoki “konsept” lotincha so'zdan olingan bo'lib, “Tushunish”, “Tizim” ma'nosini anglatib, biror-bir narsa-buyum, hodisa yoki jarayonni tushunishning ma'lum bir usulini o'zida ifoda etadi (1-rasm).

Kontsepsiya –

1) tabiat va jamiyadagi jarayonlar va narsa-hodisalarga doir qarashlar tizimi;


2) talabot, dastur, loyiha, rejalarni amalga oshirishga doir harakatlarni tashkil etish usuli nazarda tutiladi.

3) faoliyatning ma'naviyat turlarining konstruktiv tamoyili.

Pedagogika fanida kontsepsiya deganda ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlari mohiyatini yaxlit hodisa sifatida tushunish asosida uni amalga oshirish vositalari (metodlari) ta'limni ta'lim usuli nazarda tutiladi.

Kontsepsiya (pedagogik) – pedagogik ob'ekt mohiyati, tamoyil va metodlari mohiyatini ochib beruvchi yetakchi g'oyalar tizimi.

O'qitish (ta'lim) konseptsiyasi – o'quv jarayonining mohiyati, mazmuni, metodikasini tushunishga doir qarashlar tizimi yoki umumlashgan g'oyalar yig'indisi hisoblanadi.



1-rasm. Konseptsiya tarkibi

Pedagogikaning yangi tarmoqlaridan biri bo'lgan **pedagogik kompetentlik** fanini o'qitishda - magistrnlarni pedagogik kompetentlik fanining ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va talimdagi innovatsion jarayonlar tizimida oqitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish ko'zda tutilgan (2-rasm).



2-rasm. Pedagogik kompetentlik fanining maqsadi

- Pedagogik kompetentlik fanining vazifasi - talabalarga pedagogik kompetentlik faniga doir manbalardan foydalana olishga oqitish va ularda pedagogik kompetentlik haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;
- botaqak oqituvchilarni zamonaviy kishilik jamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri — talim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga oid ixtiyosli yonaltishi bo'lgan pedagogik kompetentlik fani yuzasidan nazariy bilimlar bilan tanishtirish;
 - pedagogik kompetentlikka qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan qaratilish;
 - talim-tarbiya jarayonini bola ruhivati, uning neyropsixologik, neyropedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim konikmalarni egallashlarini taminlash;
 - pedagogik faoliyatni amalga oshirishda kreativlik, yutirik, fasilitatorlik qobiliyatlarini va metodik savodxonlikni hamda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.